

**“UNA MOLIYA” MMT MChJ QK boshqaruv raisining  
2026 yil “01” iyundagi 27-sonli  
buyrug‘i bilan tasdiqlangan  
2026 yil “01” iyundan amalga kiritiladi**

**“UNA MOLIYA” MMT MChJ QK  
Foydalanuvchining akkauntini o‘chirish qoidalarini**

**1. UMUMIY QOIDALAR**

- 1.1. Mazkur Foydalanuvchining akkauntini o‘chirish qoidalarini (keyingi o‘rinlarda — “Qoidalar”) Internet axborot-kommunikatsiya tarmog‘ida <https://unamoliya.uz/> manzilida joylashtirilgan sayt va “Una Moliya” mobil ilovasidagi Foydalanuvchilarning akkauntlarini (hisob yozuvlarini) o‘chirish tartibini belgilaydi.
- 1.2. Foydalanuvchining akkaunti o‘chirilganda, Sayt va/yoki Mobil ilovada ro‘yxatdan o‘tish vaqtida yaratilgan, har bir Foydalanuvchini hisobga olish hamda noyob login va parol orqali Sayt va/yoki Mobil ilovadan foydalanish huquqini taqdim etuvchi Foydalanuvchining hisob yozuvi qaytarib bo‘lmaydigan tarzda o‘chiriladi.
- 1.3. Agar Foydalanuvchi bilan amalda mikroqarz/mikrokredit taqdim etish shartnomasi mavjud bo‘lsa, bunday Foydalanuvchining akkauntini o‘chirish mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunining 37-moddasiga muvofiq, mikromoliyaviy tashkilotlar o‘z qarz oluvchilari (mijozlari) va kreditorlarining moliyaviy operatsiyalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning maxfiyligini kafolatlaydi. Boshqaruv organlari a‘zolari, shuningdek mikromoliyaviy tashkilot xodimlari nobank kredit tashkiloti, uning qarz oluvchilari (mijozlari) hamda kreditorlari operatsiyalari bo‘yicha sir saqlanishini ta‘minlashlari shart.
- 1.4. Foydalanuvchi akkauntining o‘chirilishi Foydalanuvchining Sayt va/yoki Mobil ilovada qayta ro‘yxatdan o‘tishiga to‘sqinlik qilmaydi.

**2. FOYDALANUVCHI AKKAUNTINI O‘CHIRISH TARTIBI**

- 2.1. Akkauntni o‘chirish uchun Foydalanuvchi [info@unamoliya.uz](mailto:info@unamoliya.uz) elektron pochta manziliga yoki telefon orqali (Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmati: +998 555 200747) tegishli o‘chirish so‘rovini yuborishi kerak  
Akkauntni o‘chirish to‘g‘risidagi so‘rovni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, Kompaniya Foydalanuvchini qaror haqida so‘rov yuborilgan usul orqali yoki Kompaniyaning ichki tartib-taomillarida nazarda tutilgan boshqa usulda xabardor qiladi.  
Kompaniya quyidagi hollarda akkauntni o‘chirishni rad etishga haqli:
  - amaldagi mikroqarz/mikrokredit shartnomasi mavjud bo‘lsa;
  - Foydalanuvchining bajarilmagan majburiyatlari mavjud bo‘lsa;
  - Foydalanuvchini identifikatsiya qilishning imkoni bo‘lmasa;
  - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 2.2. Foydalanuvchining akkaunti va u bilan bog‘liq barcha ma‘lumotlar, agar amaldagi qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, Foydalanuvchi tomonidan yuborilgan va Kompaniya tomonidan ma‘qullangan akkauntni o‘chirish so‘rovi yuborilgan sanadan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kundan oshmagan muddatda amalda o‘chiriladi.
- 2.3. Mazkur Qoidalarning 2.2-bandida ko‘rsatilgan muddat tugaganidan so‘ng, Foydalanuvchining hisob ma‘lumotlari nusxasi faqat xavfsizlikni ta‘minlash, texnik nosozliklar, tabiiy ofatlar yoki boshqa fors-major holatlarida ma‘lumotlarni tiklash, shuningdek yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy nizolarni hal etish maqsadlarida zaxira saqlash tizimida saqlanishi mumkin. Zaxira nusxalaridagi shaxsiy ma‘lumotlarni saqlash muddati ularni qayta ishlash maqsadlariga erishilgunga qadar davom etadi, agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa. Qayta ishlash maqsadlariga

erishilganda yoki ularga erishish zarurati yo'qolganda, tegishli shaxsiy ma'lumotlar Kompaniyaning ichki reglamentlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddat va tartibda yo'q qilinishi yoki shaxssizlantirilishi lozim.

2.4. Akkauntni o'chirish qonunchilik yoki mazkur Qoidalarga muvofiq imkonsiz bo'lgan hollarda, Kompaniya akkaunt funksionalligini cheklashga, shu jumladan Sayt va/yoki Mobil ilovaga kirishni to'xtatishga haqli.

2.5. Kompaniya firibgarlik alomatlari, huquqlardan suiiste'mol qilish yoki Sayt va/yoki Mobil ilovadan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda foydalanish holatlari aniqlanganda akkauntni o'chirishni rad etishga haqli.

### **3. YAKUNIY QOIDALAR**

3.1. Mazkur Qoidalar matni va unga kiritilgan keyingi o'zgartirishlar <https://unamoliya.uz/> manzilida e'lon qilinadi.

3.2. Kompaniya mazkur Qoidalarga bir tomonlama tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. O'zgartirishlar, agar ularni joylashtirishda kuchga kirishning boshqa muddati qo'shimcha ravishda belgilanmagan bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan saytda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

3.3. Qoidalarga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar (qo'shimchalar), yuqorida ko'rsatilgan tartibga rioya qilgan holda kuchga kirgan paytdan boshlab, barcha Foydalanuvchilarga nisbatan tatbiq etiladi.

3.4. Kompaniya vakolatli davlat organlari tomonidan tekshiruvlar o'tkazilganda, ichki xizmat tekshiruvlari amalga oshirilayotganda, Foydalanuvchining murojaatlari ko'rib chiqilayotganda, shuningdek Sayt va/yoki Mobil ilovadan foydalanish bilan bog'liq sud yoki boshqa nizolar mavjud bo'lgan hollarda, Foydalanuvchining akkauntini o'chirish jarayonini vaqtincha to'xtatib turishga haqli.

3.5. Akkauntni o'chirish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va shartnoma shartlariga muvofiq ilgari uchinchi shaxslarga, shu jumladan kredit byurolari, to'lov tashkilotlari va davlat organlariga taqdim etilgan ma'lumotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3.6. Foydalanuvchi akkauntni o'chirish to'g'risidagi so'rovni yuborishda taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgar hisoblanadi. Kompaniya Foydalanuvchi muvaffaqiyatli identifikatsiya qilengandan keyin yuborilgan so'rov asosida akkaunt o'chirilganligi uchun javobgar bo'lmaydi.